



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-87-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Rajabovaning hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Rajabovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinayev)lar:

- xotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli tarzda ko‘maklashish tizimini joriy qilish bo‘yicha belgilangan vazifalarni ijro qilishda ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir xotin-qizlarni bandligini ta‘minlash, ularning har biri bilan birma-bir muloqot qilish,

muammo va ehtiyojlarini aniqlash, taklif va qiziqishlarini o'rganish orqali bajarish;

- xotin-qizlarni salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

- "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazi"dagi mashg'ulotlarning sifatli va to'liq o'tkazilishiga hamda markazlar faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashish;

- tumanda oilaviy ajrimlarni oldini olish maqsadida "Oila muqaddas dargoh" hamda "Noqonuniy nikoh va uning salbiy oqibatlari" mavzularidagi targ'ibot tadbirlarini o'z vaqtida, tizimli va samarali tashkil etsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i (Sh.Rajabova):

- xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish;

- "Ayollar daftari" ro'yxatidagi ishga muhtoj bo'lgan ayollarni ish bilan ta'minlash, ularga ma'naviy va huquqiy yordam berish choralarini ko'rish;

- uy-joysiz yashayotgan ayollarning ro'yxatini shakllantirish yoki uy ta'miriga muhtoj bo'lganlarga mahalla faollarining yordami bilan "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan pul ajratish;

- xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, zarur hollarda ro'yxatga o'zgartirish kiritish;

- "Ayollar daftari" jamg'armasi mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlanlash choralarini ko'rish;

- gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mahallalardagi xotin-qizlar faollarining faoliyatini tanqidiy tahlil etib, baholab borish;

- xotin-qizlar o'rtasida sportni ommalashtirish, madaniy hordiq chiqarishlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chorasini ko'rsin;

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov